

FARZANDLARIMIZ-KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Musayeva Latofat Qodirnazarovna

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tuman
MMTBga qarashli 4-sonli umumiy
o‘rta maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatasiya: Mazkur maqola farzand tarbiyasining mohiyati, unda ota-onaning tutgan o‘rni, mas’uliyati, vazifalari va burchlari masalalarini chuqur tahlil etishga bag‘ishlangan. Unda farzand tarbiyasi nafaqat kundalik hayotiy tajriba va oddiy ko‘rsatmalarga asoslangan jarayon ekanligi, balki u murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa bo‘lib, o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyat, etika, psixologiya va pedagogika kabi ko‘plab fan sohalariga oid tushunchalarni qamrab olishi ta’kidlangan. Maqolada farzand tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati, sog‘lom va ma’naviy yetuk avlodni voyaga yetkazishdagi ota-onalarning beqiyos roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarbiyachilar, o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar uchun amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, ota-on, farzand, mas’uliyat, tarbiya, xulq-atvor, ma’naviy kamolot, sog‘lom avlod, psixologik yondashuv.

O ‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta ’kidlaganlaridek:

“Avlodlar davomiyligini ta ’minlaydigan ma ’naviyat qo ‘rg ‘oni bu – oiladir.”

Bu so‘zlar hayotiy haqiqat bo‘lib, farzand tarbiyasining ildizlari aynan oiladan boshlanishini ifodalaydi. Bugungi globallashuv davrida barkamol avlodni tarbiyalash nafaqat ijtimoiy vazifa, balki har bir insonning axloqiy burchi sifatida qaralmoqda. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko‘plab islohotlar va dasturlar zamirida

oilani mustahkamlash, bolalarga sog‘lom ma’naviy va jismoniy rivojlanish muhitini yaratishdek ezgu maqsad mujassam.

Jamiyat taraqqiyoti bevosita uning eng kichik birligi bo‘lgan oilaning mustahkamligiga bog‘liqdir. Oila sog‘lom bo‘lsa – jamiyat barqaror, jamiyat barqaror bo‘lsa – davlat taraqqiy etadi. Shu boisdan ham farzand tarbiyasiga oid masalalar nafaqat ota-onalar, balki ta’lim-tarbiya muassasalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari va butun jamiyat e’tibor markazida bo‘lishi lozim.

Farzand tarbiyasi – bu oddiy ko‘rsatmalar, odatiy nasihatlar majmui emas, balki murakkab va uzlusiz jarayondir. Bu jarayonning samaradorligi diniy-axloqiy bilimlar, psixologik yondashuvlar, pedagogik metodika, ijtimoiy muhit va oilaviy qadriyatlarning uyg‘unligiga bog‘liq. So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Sog‘lom bola yili”, “Yoshlar yili”, “Oila yili” kabi tematik yillar doirasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar aynan farzand tarbiyasiga qaratilgan davlat siyosatining izchil davomidir. Bu orqali bolalarning sog‘lig‘i, ta’lim olishi, ma’naviy kamoloti va ijtimoiy faolligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri – ota-onasining e’tiboridan chetda qolayotgan bolalar masalasidir. Ayrim hollarda ota-onaning xorijga ishlash uchun ketishi yoki o‘z farzandlariga befarq munosabati yosh avlodning jinoyatchilik, giyohvandlik yoki axloqiy buzuqlik yo‘liga kirib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday holatlarning oldini olishda ota-onalarning mas’uliyati, bolani foydali faoliyat bilan band etish, ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta’minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Farzand tarbiyasi – bu har bir jamiyatning ertangi taqdiri, har bir millatning kelajagi. Shu bois bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish, ota-onalarning mas’uliyatini oshirish, ijtimoiy institutlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunning zaruriyatidir. Barkamol, sog‘lom, fidoyi, ilmli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash orqali biz O‘zbekistonning porloq istiqbolini kafolatlaymiz. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi burchlaridan biri uni yoshligidan boshlab ilm olishga o‘rgatish,

ulg‘aygan sari biror o‘ziga munosib kasbu hunar tanlashga yo‘l ko‘rsatib borishlaridir. Abdulla Avloniy aytganidek: “Hushyor va ziyrak kishilar kuch va quvvatlari bor vaqtida keladurgan zamonlarini tushunib, pul va mollarini o‘rinsiz joylarga, to‘y va ma’rakalarga haddan ortiqcha isrof qilmaslar, o‘zlarining rohati, bola-chaqalarining saodati uchun kerak bo‘ladurgan yer va bog‘larini sotmaslar, zamonaga muvofiq kishi qilmak uchun bolalarini o‘qitmak va tarbiya qilmak to‘g‘risida aqchalarini aslo qizg‘anmaslar”.

Sharq mutafakkirlari ham bolaning oiladagi tarbiyasi xususida o‘z asarlarida juda ko‘p to‘xtalib o‘tganlar. Jumladan, buyuk alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘zining “Donishnama” asarida bola tarbiyasi uchun avvalo ota-onada mas’ulligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga alloma o‘z asarida ota-onaning ilmli, fozil va dunyoqarashi keng bo‘lishini alohida uqtirib, farzand tarbiyasidan mas’uliyatliroq ish yo‘qligini olib beradi. Ulug‘ mutafakkir Kaykovus ham o‘zining “Qobusnama” asarida farzandning aql egasi bo‘lishini hamma narsadan ulug‘ deb bilib, shunday nasihat qilgan edi: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa harakat qil, chunki mol ila boy bo‘lmoqdan, aql ila boy bo‘lmoq yaxshiroqdir. Aql ila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol ila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilki, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas va suvda oqmas”. Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma’qullah yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, ma’suliylatsiz bo‘lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Abu Ali ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli, jismonan sog‘lom qilib kamol toptirishda shaxsiy namuna bo‘lish usulini ko‘p uqtiradi: “Bola tarbiyasida, eng avvalo, oila hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo‘lmaydi. Hammasi, hatto eng oddiy bo‘lib ko‘rinadigan kundalik munosabatlar ham bolaga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, rostgo‘ylik,

samimiylilik, sadoqatlilik va shirinsuxan bo‘lish bola kamolotidagi muhim hayotiy vositalardan biridir”.

Farzandning shaxsiyati, dunyoqarashi va xulq-atvori shakllanishida ilk bolalik davri eng muhim poydevor hisoblanadi. Bu davrda bola qalbi o‘ta sezuvchan, ta’sirchan bo‘lib, tashqi muhit, oila va jamiyatning har qanday ijobiy yoki salbiy ta’sirlarini tezda qabul qiladi. Shu sababli, azaldan diniy manbalarda va xalq og‘zaki ijodida farzandga mehr ko‘rsatish, bolalikni quvonchli o‘tkazish muqaddas qadriyat sifatida ulug‘lanadi.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarda ta’kidlaganlaridek:

“Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar.”

Bu hikmatli so‘zlar har bir ota-onani farzandining zamonaviy bilimlar, texnologiyalar, axloqiy me’yorlar va diniy-ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘lib ulg‘ayishiga e’tiborli bo‘lishga undaydi. Ayniqsa, bugungi raqamli asrda bu chaqiriq yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Farzand tarbiyasida sabr-toqat, xotirjamlik va oila ichidagi hamjihatlik alohida o‘rin tutadi. Aksincha, oilaviy nizolar, notinch muhit va befarqlik bola ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning ijtimoiylashuvi, bilimga bo‘lgan qiziqishi va xulq-atvori shakllanishiga to‘sinq bo‘ladi. Ruhiy bosim ostida ulg‘ayayotgan bola asabiy, tajovuzkor, o‘ziga ishonchsiz bo‘lib yetishadi. Natijada, voyaga yetganda u jamiyatga zid bo‘lgan, qonunga hilof xatti-harakatlarga moyil bo‘lishi mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ota-onaning mas’uliyati nafaqat farzandini boqish yoki kiyintirish bilan chegaralanmaydi, balki uni har tomonlama sog‘lom va yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgan quyidagi vazifalarni ham o‘z ichiga oladi:

- ✓ bolaga sog'lom turmush tarzi asoslarini o'rgatish, gigiena va axloqiy me'yorlarga amal qilishga undash;
- ✓ bolalikdan iqtisodiy va huquqiy savodxonlikni shakllantirish;
- ✓ bo'sh vaqt ni mazmunli tashkil etish, qiziqishlariga mos faoliyatlar bilan shug'ullanishni rag'batlantirish;
- ✓ sport mashg'ulotlari, harakatli o'yinlar va ekologik tarbiya orqali jismoniy va estetik kamolotni qo'llab-quvvatlash;
- ✓ jinsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda, o'g'il va qiz bolalarga individual yondashuv asosida suhbatlar va tarbiyaviy faoliyatlar olib borish;
- ✓ diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda, bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va halollik kabi fazilatlarni tarbiyalash.

Farzand tarbiyasida bu mezonlarga rioya etish nafaqat mustahkam oila, balki barkamol jamiyat barpo etishning ham muhim shartidir. Zero, bugun o'z farzandiga mehr, e'tibor va sabr bilan yondashgan ota-onada ertaga yuksak insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan farzandga ega bo'ladi.

Farzandni qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni o'zining alohida xususiyatlari, odatlari bilan qabul qilinishi bola shaxsining takrorlanmasligini, o'ziga xosligini tushunish ota-onaga sabr va mas'uliyatni yuklaydi. Farzand ota-onada ular istagandek mukammal shaxs bo'lmasligi mumkin, lekin ularning dunyoqarashini rivojlantirish, kamchiliklarini, hissiyotlarini, har bir bolaning o'ziga xosligini, tabiatan berilgan iqtidorini sezib tarbiyalash ota-onaga yuklanadigan vazifadir. Bunda oiladagi keksalarimiz, ya'ni buva va buvilarning ham farzand tarbiyasida katta hissasi bo'ladi.

Oiladagi bolaning rivojlanishida, o'ziga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishida, atrofidagilarini hurmat qilish, mehr-muhabbat ko'rsatish va birdamlikda harakat qilishga o'rgatishda ularning o'rni beqiyosdir. Ota-onada, buva-buvilar o'z hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklar, yo'l qo'ygan xatolarni to'g'ri talqin qilib, ularda o'ziga bo'lgan ishonch, mehnatsevarlik va sabr-toqat hissini shakllantiradilar. Ota-onada o'z bolasining xato va kamchiliklarini yuziga solishdan,

boshqalarga namuna qilib ko'rsatishdan qochishi kerak. Shunda bolada kelajakka bo'lgan ishonch va intilishlarni ta'minlaydi. Bolaga "Seni bugungi ishing yaxshi, ertaga bundan ham yaxshi bo'ladi" – degan fikrni bildirib turish yaxshi natijalar beradi. Tarbiyaning bu yo'li bolaning ruhiy va jismoniy salomatligini mustahkamlaydi, oldiga qo'ygan maqsadi yo'lida sabot bilan harakat qilishini ta'minlaydi.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi tobora kuchayib borayotgan davrda, ma'naviy immunitetga ega, erkin fikrlaydigan, o'z nuqtayi nazarini aniq va ravon ifodalay oladigan, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi barkamol avlodni tarbiyalash ota-onas va oilaviy muhitning bevosita ta'siriga bog'liqdir. Chunki aynan oila – farzand tarbiyasining ilk maktabi, ma'naviy shakllanishining bosh manbaidir. Yoshlar qalbi va ongini turli buzuq g'oyalar, yot illatlar bilan zabit etishga urinishlar kuchayib borayotgan hozirgi zamonda, har bir farzand kim ekanligini, qanday buyuk ajdodlarning vorisi ekanligini anglab yetmog'i, vatanga muhabbat, e'tiqodga sadoqat bilan yashashi dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu bois biz, ota-onalar va tarbiyachilar zimmasida muqaddas bir vazifa – yosh avlodni o'z milliy qadriyatları, diniy e'tiqodi, tarixiy o'tmishi va ona tiliga sadoqat ruhida tarbiyalash burchi turibdi. Shunday tarbiya beraylikki, farzandlarimiz yot va begona g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitet bilan qarshi tura olsin, Vatan ravnaqi uchun intiluvchan, vijdonan pok, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib yetishsin. Zero, kelajagimiz ularga bog'liq!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli qarori.
2. Мирзиёев М.М.–“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagи “O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 577-sonli qarori.